



**Toshkent shahar statistika boshqarmasida
korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida
bo‘lib o‘tgan yig‘ilish**

BAYONI № 9

2025- yil 30-sentabr

Toshkent sh.

Yig‘ilish raisi: L. Mirsoatov – boshqarma boshlig‘i.

Qatnashganlar:

X. Narziyev- Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari v.b.

Boshqarma tarmoq bo‘limlari va tuman statistika bo‘limlari xodimlari

KUN TARTIBI:

- 1. O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2025-yil 5-mart sanasida bo‘lib o‘tgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashda ishtiroki” yuzasidan ma’lumot.**
- 2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 27-yanvardagi “Aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murossasizlik muhitini shakllantirish to‘g‘risida” KQ-49-V-son qarorining muhokamasi.**

(L. Mirsoatov, X. Narziyev, A. Mamatov, B. Shakarov, L. Mirsoatov)

Yig‘ilishda Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig‘i L.Mirsoatov so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2025-yil 5-mart sanasida bo‘lib o‘tgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashda ishtiroki” hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 27-yanvardagi “Aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murossasizlik muhitini shakllantirish to‘g‘risida” KQ-49-V-son qarori yuzasidan mazmun mohiyatini boshqarma tarmoq bo‘limlari va tuman statistika bo‘limlari xodimlariga qisqacha tushunchalar berib o‘tdi.

Yig‘ilishda so‘zga chiqqan L.Mirsoatovning ta’kidlashicha: Davlatimiz rahbari o‘z nutqida korrupsiya islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov ekanini ta’kidladi.

Shu bois so‘nggi yillarda bu illatga qarshi kurashish bo‘yicha qonunlar qabul qilinib, yangi tizim yaratildi. Parlament palatalarida mas‘ul qo‘mitalar, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va Agentlik tashkil qilindi.

Eng muhimi, jamiyatda korrupsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan ochiq tizim, ochiq muhit yaratildi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining bu boradagi o‘rni va ta‘siri ortib bormoqda.

Avvalo, korrupsiyaning omillariga qarshi kurashilmoqda. Masalan, yerni hokim qarori bilan ajratishdan to‘liq voz kechib, auksion tizimiga o‘tkazilgani natijasida bu tizim xalqchil bo‘ldi. “Shaffof qurilish” dasturi joriy etilganidan keyin bu sohada ham ijobiy o‘zgarishlar sezildi.

Davlat xaridlari bo‘yicha qonun qabul qilingani, tanlov va tender raqamlashib, sog‘lom raqobat bo‘lgani uchun o‘tgan yili 14 trillion so‘m budjet mablag‘i tejaldi.

Bugunga kelib, barcha banklar 100 million so‘mgacha maishiy kreditlarni inson omilisiz 5 daqiqa ichida onlayn berayapti. Natijada oldin bu ish bilan shug‘ullangan minglab bankirlar endi mahallaga tushib, odamlarga loyiha, kredit taklif qilib, mijozini ko‘paytirish bilan ishlayapti.

Maktabgacha va maktab ta‘limi tizimida 10 dan ortiq xizmat turlari to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi. Bu sohada murojaatlar soni 2,5 karraga kamaydi.

Oliy ta‘lim tizimi ham raqamlashtirildi. Avval test topshirib, to‘plagan balliga qarab, keyin oliygohni tanlash joriy qilindi. 35 turdagi hujjatlarni inson omilisiz olishga o‘tilgani uchun sohadagi murojaatlar 2,2 baravar kamaydi.

Yo‘l harakati xavfsizligi inspektori “bodi-kamera”da xizmat o‘tayotgani, avtoraqamlar auksionda sotilayotgani, qog‘ozdagi bayonnoma yo‘q bo‘lgani uchun korrupsiya omillari keskin kamaydi.

Aholi va tadbirkorlarga “xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Xususan, 120 turdagi hujjatlarni talab qilish, 160 dan ortiq litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. Natijada 200 mingga yaqin yangi tadbirkorlar bozorga kirib keldi. Chet el ishtirokidagi korxonalar qariyb 5 karra oshib, 23 mingga yaqinlashdi.

Elektron davlat xizmatlari soni 15 karra ortib, 721 taga yetdi, ulardan foydalanuvchilar esa, 11 milliondan oshdi.

Eng muhimi, bular orqali aholi, tadbirkorlar, xorijiy hamkorlarimiz, xalqaro tashkilotlar va investorlarning islohotlarga ishonchi mustahkamlandi. So‘nggi yetti yilda 120 milliard dollardan ortiq investitsiya kirgani, iqtisodiyotimiz 2 karra o‘sib, o‘tgan yili 115 milliard dollarga yetgani buning isboti.

Prezident korrupsiyaga qarshi kurashish doimiy jarayon ekanini aytib, bu boradagi dolzarb masalalarni va kelgusi vazifalarni ko‘rsatib o‘tganligi ta‘kidlab o‘tildi.

Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo‘limlari rahbarlari, xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg‘arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda

korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shartligi yuzasidan ogohlantirildi.

Shuningdek, 2025-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash yuzasidan boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari majburiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi. Ushbu chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarish yuzasidan boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlariga tegishli topshiriqlar berilganligi qayd etildi.

Shu bilan bir qatorda, So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish hamda unga qarshi kurashishga, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda.

Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish choralari ko'rilmogda hamda "Korrupsiyasiz soha" loyihalari amalga oshirilmoqda.

Xususan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilib, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi ustidan tizimli nazorat o'rnatildi.

Qabul qilingan qonunlar orqali korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari kuchaytirilmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyati hamda ahamiyatini joylarda fuqarolarga yetkazish, aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish maqsadida, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning 16-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi bir qator qaror qilindi:

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisining aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish bo'yicha axboroti ma'lumot uchun qabul qilinishi, aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish masalalari yuzasidan ishchi guruh tarkibi tuzilganligini etirof etib o'tildi.

Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari rahbarlari, xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg'arazlik

bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shartligi yuzasidan ogohlantirildi.

Shuningdek, 2025-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash yuzasidan boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari majburiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi. Ushbu chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarish yuzasidan boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlariga tegishli topshiriqlar berilganligi qayd etildi.

Bundan tashqari, joylarda tashkil qilinayotgan profilaktika ishlarini tashkil qilishda yuqoridagi chora-tadbirlar rejasida berilgan topshiriqlarni qat'iy amalga oshirishlari, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va Hukumat qarorlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini yangi tashkil topgan hamda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga tushuntirish ishlarini kuchaytirish, bunda joylardagi seminar uchrashuvlar va "Ochiq eshiklar kuni"da tadbirkorlik sub'ektlariga davlat statistika hisobotlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishlari lozimligi to'g'risida doimiy ravishda tushuntirishlar berib borishlari yuzasidan topshiriqlar berib o'tildi.

Shu bilan birga, boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari xodimlarining odob-axloq qoidalariga amal qilishlari to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Kun tartibidagi masalalar va ular to'g'risidagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish


Q A R O R Q I L A D I:

1. Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'i L.Mirsoatov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublika Prezidentining 2025-yil 5-mart sanasida bo'lib o'tgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashda ishtiroki" yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari boshliqlariga:

Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'i L.Mirsoatov so'zga chiqib, Boshqarma tarmoqlari va tuman statistika bo'limlari odob-axloq qoidalariga va statistika ishlari dasturida ijrosi ta'minlash maqsadida rahbariyat tomonidan berilgan barcha topshiriqlar so'zsiz bajarilishi ta'minlansin hamda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar rahbariyatga kiritilsin.

Yig'ilish kotibi



A. Mamatov